

**NOSIR FOZILOV ESSE-XOTIRALARIDA REALISTIK TASVIR VA
BADIY TO‘QIMA**

O‘tkir Abdunazarov,
*O‘zR IIV Surhondaryo akademik
litseyi “Tillarni o‘rganish”
kafedrasi mudiri., f.f.f.d. (PhD)*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada mohir essenavis Nosir Fozilovning turli davrlarda yaratilgan esse-xotiralarining badiiyati haqidagi kuzatishlar bayon etilgan.*

***Kalit so‘z:** Esse, xotira, badiiy to‘qima, tasvir, tahlil, yodnoma, yumor, ijodkor shaxsi, obraz, qahramon.*

***Аннотация.** В данной статье излагаются наблюдения по поводу искусства очерков-воспоминаний Насира Фазилова, искусного эссеиста, созданных в разные периоды.*

***Ключевые слова:** Очерк, память, художественная ткань, образ, анализ, мемуары, юмор, творческая личность, образ, герой.*

***Annotation.** This article describes the observations about the art of the essay-memoirs of Nasir Fazilov, a skilled essayist, created in different periods.*

***Key word:** Essay, memory, artistic tissue, image, analysis, memoir, humor, creative personality, image, hero.*

Essenavislik istiqloq yillariga kelib yangi bosqichga ko‘tarildi. Agar sho‘ro davrida yozilgan esselarda ko‘proq yozuvchilarning hayoti va ijodiga e‘tibor qaratilib, ular shaxsiyatidagi o‘ziga xosliklarga kamroq o‘rin ajratilgan bo‘lsa, keyingi yillarda bitilgan esselarda ular shaxsiyatidagi yetakchi xislatlar asarlaridagi motivlar bilan uyg‘un tarzda yoritila boshladi. Bundan tashqari essenavislikdagi yangicha ko‘rinish – esse-xotira janri ham tezkor rivojlandiki, bunda biz ilgari kuzatilmagan talqinlar bilan tanisha boshladik. Taniqli yozuvchi Nosir Fozilov ijodining salmoqli bosqichini esse-xotiralari tashkil etadi. Xotira inson ruhiy olamining ajralmas bir bo‘lagi hisoblanadi, shuning uchun ham adib yodnomalari o‘zi ko‘rgan real voqealar asosida yaratilgan va o‘z qiymatini saqlab qolgan. Albatta, hayotda bo‘lgan voqea hodisani realistik tasvirlash yozuvchining mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Realistik tasvir haqida to‘xtaladigan bo‘lsak jahon adabiyotida ham xususan o‘zbek adabiyotida ham ushbu metod asosida yaratilgan asarlar talaygina. O‘zbek adabiyotida hayotni realistik tasvir etish holatlari Alisher Navoiy, Bobur va boshqa mumtoz yozuvchilarning ijodida ko‘ringan bo‘lsa-da keyinchalik Muqimiy, Zavqiy, Furqat kabi shoirlar ijodida ham asosiy yo‘nalishni tashkil etgan. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotida ham realistik tasvir aniq ko‘rinish bera boshladi. Jumladan, Behbudiyning “Padarkush” dramasida, Fitratning “Hind sayyohi bayonoti” qissasida, Qodiriy hikoyalari, Cho‘lpon she‘riyatida ham realistik holatlarni kuzatishimiz

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

mumkin. XX-asrning 30-yillarida sotsialistik realizm metodi o‘ylab topilgandan so‘ng yozuvchilardan asosan shu metod asosida yozilishi talab etildi. Bu jarayon yurtimizda shaxsga sig‘inish davri fojialari fosh etilgunga qadar davom etdi. O‘zbek adabiyotida realizmning shakllanishi va rivojlanishida yozuvchilarimizdan Oybek, Shayxzoda, Ayniy, P.Qodirov, O.Yoqubov asarlari, hamda Mirtemir, Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon va shu kabi ko‘plab shoirlarimiz she‘rlari muhim ahamiyat kasb etadi. Nosir Fozilov esse-xotiralarida ham realistik tasvir o‘rinli dalillar asosida keltiriladi. Muallif “Qaysi Oybek” nomli yodlovida o‘zining talabalik yillarida taniqli yozuvchimiz Oybek domlaning ilk marotaba ko‘rgan paytlarini chiroyli tasvir etadi: “E’longa yopishib tursak, kimdir biqinimga turtdi. – Oybek domla kelayapdilar. Haqiqatan ham, shunday saraton kunlarida egnilariga qora kostyum kiyib olgan, qora jingalak sochlari xurpayib, qoramag‘izdan kelgan lo‘ppi yuzlari issiqdan bo‘g‘riqib, shig‘g‘a terga tushib ketgan Oybek domla shundoqqina orqamizga kelib to‘xtadilar-u, e’lonni ko‘rib, hayajondan aslida tim qora katta-katta ko‘zlari chaqnab ketdi.

Ho‘, yozibdimi a? Qaysi Oybek?!

- Kimdir piq etib kulib yubordi. Bizlar qotib turardik. Kulish qayoqda! O‘zbek adabiyotida Oybek bittaligini ham, bu romanni o‘zi yozganini unutib qo‘ygani ham biz uchun sevimli yozuvchimizning o‘ziga xos fazilati bo‘lib tuyular edi”¹. Adib ushbu yodlovda Oybek shaxsiyatiga xos bo‘lgan ichki va tashqi ko‘rinishni ajib bir ifoda bilan haqiqiy holatini ko‘rsatib bera olgan. Oybek domlaning soddalarcha qaysi Oybek degani shu topda uning yuz ifodasi hayron qolish alomatlarining tasvirini o‘quvchi bir o‘qishdayoq tushinib oladi va o‘qirman faqatgina nomini eshitgan, yozgan asarlari orqali bilgan Oybek domlaning o‘ziga xos xususiyatlarini va tashqi ko‘rinishini shu onda tasavvur qiladi. Bundan tashqari muallif “Hech kim bundan oshirolmaydi”, “Yeb qo‘yadi”, “Qardoshlar” kabi esse-xotiralarida ham adibimiz Oybek xarakterining g‘oyat mukammallashgan ko‘rinishi, unga mos bo‘lgan xususiyatlarini butun to‘laligi bilan akas ettiruvchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Xuddi shu ko‘rinishdagi yodlovdan muallif ko‘rganlarini “Yomg‘irda xotin tug‘maydi” esse-xotirasida adibimiz Abdulla Qahhor xonadonida hasharga borganligi va hashar bohona oshar boshlanib ketganligi, barchaning kayfiyati chog‘ ekanligi haqida so‘z boradi. Bazm avjiga chiqqanida mehmonlardan birining ketishga chog‘lanishi voqeasida adib ajoyib tasvirni keltiradi:– “Ha, shoir, nima harakat? Haydarali aka qarasa, tepasida Abdulla aka turibdi. U kishining ham ko‘zlari suzilgan. Bir tufisini qo‘lantayoq kiygan, ikkinchisi qo‘lida, Haydarali aka devorga suyanib, qaddini

¹Fozilov N. “Munavvar lahzalar”. –Toshkent: O‘zbekiston,2013-y. 27-b.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

rosladi. –Keliningiz og‘iroyoq edi... – dedi Haydarali aka xijolatomuz. – Shunga... ketmasam bo‘lmaydi, Abdulla aka. Qarasa bo‘lmaydigan. Yomg‘ir esa hech pasayadigan emasdi. Shu ahvolda, shu yomg‘irda uni ko‘chaga chiqarib bo‘larkanmi? – Qo‘ysangiz-chi, shoir, – dedi Abdulla aka uni *mantiq kuchi bilan ishontirishga harakat qilib.*- *Shu yomg‘irda ham xotin tug‘adimi? Haydarali aka sal bo‘shashdi.*

- *Tug‘maydimi?!*

- *Tug‘maydi, – dedi ishonch bilan Abdulla aka.*

- *Mayli undoq bo‘lsa... – deb Haydarali aka yarim soat ovvora bo‘lib, zo‘rg‘a kiygan tuflisini yecha boshladi*². Muallif ushbu yodlovda Abdulla Qahhor bilan bog‘liq yengil satirik holatni realistik tasvirlash orqali o‘quvchiga yetkazganligini kuzatamiz. Albatta, adabiyotimizda Abdulla Qahhordek so‘zni o‘rnida qo‘llash, so‘zomollikka yetadigani bo‘lmasa kerak. Ushbu fikrimizning isbotini “Salidniy ko‘rinay deb”, “Tag‘in nima qilay”, “Armon”, “Chumchuq ovi”, “Kelaveringlar tishlamaydi”, “Qiyosni qarang” kabi yodnomalarini mutolaasida guvohi bo‘lamiz. Bu yodlovlarda adib Abdulla Qahhor shaxsiga o‘rinli dalillar asosida munosabat bildirib o‘tadi. Nosir Fozilov esse-xotiralarida qozoq adiblari bilan birga o‘tgan davrlarni, ular bilan bo‘lgan ajoyib voqea-hodisalar tasvirini ham ko‘ramiz. Adibning “Sen yutding” nomli yodlovida bir anjuman sabab Olmaotaga O‘zbekistondan yozuvchi Latif Mahmudov bilan borgani, tashrif davomida bir qozoq adibining ayoli vafot etib undan ko‘ngil so‘rash uchun borgani Bovurjon og‘a va unga yaqin odamlar to‘planib o‘tirgani voqealari tasviri keltiriladi. “-Hoy, Nosir,- dedi menga o‘girilib og‘a. – Bilasanmi, mening uchinchi otam o‘zbek. Gap kelganda otangni ham ayama, deyishadi-ku. Ko‘nglinga kelgan gapni men ham qaytarolmadim:

- *Men ham hayron bo‘lardim-a, mana shunday dovrug‘li qahramon qozoqlarning peshonasiga qanday bitibdi, deb. Bobokalonlaringiz o‘zbek ekan-da?*

Bu kutilmagan gapni eshitib, davra bir nafasga jimib qoldi. Bu gapni aytishga aytib qo‘yib, o‘zim ham cho‘chib turibman, nima bo‘ladi deb, harbiy odam. Har gapi buyruqday yangraydi. Sekin gapirayotgani ham komandaday eshitaladi. Biroz sukut saqlab turgach, og‘a birdan tilga kirdi:

- *Vstat‘!*

- *Hamma o‘rnidan turib, qotib qoldi. So‘ng o‘zi ham asta o‘rnidan turib, menga qarab quchog‘ini yoydi:*

- *Kel bolam, sen yutding.*

- *Atrofdagilar, xudoga shukur-ey, degandek erkin nafas olishdi. Men asta yurib, og‘aning oldiga bordim, u kishi meni mahkam bag‘riga bosdi*².

²Fozilov N. “Munavvar lahzalar”. – Toshkent: O‘zbekiston,2013. 133-134 b.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Nosir Fozilovning esse-xotiralarida quyidagi keltirilgan parchalardan kuzatishimiz mumkinki bu voqealar tasvirining barchasi real ko‘rinishga egaligi bilan ahamyatlidir. Rahmonqul Berdiboyevning “Do‘stlik elchisi” maqolasida Nosir Fozilovning “Ustozlar davrasida” nomli kitobiga fikr bildirar ekan shunday deydi: “Gapning dangalini aytsak, bir talay xotiralarni o‘qiganmiz, o‘zimiz ham yozganmiz. Biroq, ularning biron-tasi Nosir bitganchalik ishonarli chiqmagan”³. Muallifga berilgan bunday baho esse-xotiralarning reallikka asoslanib yaratilganligidan dalolat berad. Hayotdagi har bir hodisa yoki bo‘lmasa shaxslar faoliyati aslida qanday kuzatilgan bo‘lsa shu holatda ko‘chirib olinmaydi. Yozuvchi tarixiy shaxs hayotini aks ettirganda ham, umumlashtirish yo‘li bilan qahramonni tasvirlaganda ham, ularning hayotdagi fe‘l-atvori, boshidan kechirganlari qanday bo‘lsa shunday tasvirlamay balki ularni muayyan nuqtayi nazardan bir oz o‘zgartiradi, ba‘zilarini o‘zidan qo‘shadi, ba‘zilarini esa tushirib qoldiradi, albatta. Badiiy to‘qimadan kerakli jihatlarda foydalanadi. “Bizning tuyg‘ularimiz ba‘zan shu qadar hadsiz bo‘lib ketadiki... Mehr qo‘ysak, uning chekini topolmaymiz, nafrat qilsak, chegarasini qo‘yolmaymiz. Bu juda g‘alati hodisa. Ko‘pincha o‘qiyotgan romanlarimizga va qissalarimizga shu nuqtayi nazardan qaraymiz. Ijobiy qahramonmi, u albatta, har tomonlama yetuk va barkamol bo‘lishi, salbiy qahramonmi, qurumdan ham qora bo‘lishi shart. Hatto adabiy asarlarga munosabat borasida ham shundaymiz. Yozuvchi xayolotini, badiiy to‘qima hodisasini unutib qo‘yamiz, shekilli”⁴. O‘zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlasak yozuvchilarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy romanlarda, Amir Temur haqida yozilgan asarlarda yoki bo‘lmasa P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani, O.Yoqubovning “Ulug‘bek hazinasi” kabi bir qator romanlarda yozuvchilarimiz mahorat bilan badiiy to‘qimadan foydalanganlar. Nosir Fozilov esse-xotiralarini o‘qiganda ham o‘quvchi bu jihatlarni kuzatishi mumkin. Adib o‘zi ishtirok etmagan yodnomalarida asarni o‘qishlilik darajasini oshirish maqsadida badiiy to‘qimadan o‘rinli jihatlarda foydalanadi. Nosir Fozilovning “Tosh”, “Yegor Samoylovich”, “To‘yona” kabi esse-xotiralarini yuqoridagi fikrimizga isbot tariqasida keltirsak bo‘ladi. Ushbu xotiralarni adib qozoq yozuvchisi Sobit Muqonovdan eshitganligini ta’kidlagan va bu yodnomalarga o‘zi sarlavha qo‘yib chiroyli tarzda badiiylashtirgan. Adibning boshqa bir talay yodnomalari ham xuddi shu tarzda yaratilgan. Misol tariqasida “Armon”, “Azbaroyi xudo”, “Lug‘atga qaralsin”, “Qori ishkambalik”, “G‘afur akaning o‘z og‘zidan eshitgan hangomalarim” kabi esse-xotiralarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

³“G‘ira-shira shomdan oppoq tongacha”. – Toshkent:G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017-y. 13-b.

⁴R.Haydarova “Tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima va uydirma” // Sharq yulduzi, 2017-y. 2-son.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. –T.:“Kamalak”,2016.-462 b
2. Qahramonov Q. Zamondosh Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon. – T.: Tamaddun, 2019. –207 b
3. Fozilov N. “Munavvar lahzalar”. –T.: “O‘zbekiston”,2013-y. 253-b.
4. “G‘ira-shira shomdan oppoq tongacha”. – T.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2017-y. 259-b
5. R.Haydarova “Tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima va uydirma” // Sharq yulduzi, 2017-y. 2-son.
6. “Nosir Fozilov zamondoshlari xotirasida”.-T.: “Mashhur-press” 2019. -349 b.
7. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
8. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
9. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.
10. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(10), 415-419.
11. Qalandarova, D. Z. (2024). EPIK JANRLARNING XORIJDA TADQIQ ETILISHI MASALALARI (“Alpomish” dostoni misolida). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 79-83.
12. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(03), 1-6.
13. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.